



AVTOMOBIL TRANSPORTI KORXONALARIDA IQTISODIY TAHLILNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Ergashev Sherzod Toshpulatovich

*Avtomobil transporti xodimlarini malakasini oshirish va qayta
tayyorlash instituti mutaxassisi*

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tel: 97 725-44-41. e-mail: lionsher@list.ru

Annotatsiya: *Transport sohasi barcha sohalarini birlashtirib turuvchi soha hisoblanib, o'zining alohida xususiyatiga ega. Bugungi kunda jamiyatda yashayotgan har bir inson albatta qaysidir ma'noda transport xizmatidan foydalanadi, xo'jalik yurituvchi subyektlarni esa mazkur soha xizmatisiz tasavvur qilish mushkul. Shu bo is transport tashkilotlarining barqarorligi, ularning doimiy va sifatli xizmat qilishining birdan-bir manbai sohaning o'zida ham moliyaviy barqarorlikning mavjud bo'lishidir. Respublikamiz transport tizimi tomonidan havo transporti, avtomobil transporti, metropoliten, temir yo'l transporti va qisman daryo transporti orqali xizmatlar ko'rsatilishi ma'lum. Ammo mazkur xizmatlarning har birining o'z xususiyati mavjud. Shu bois transport tashkilotlarida tahlil ishlarini ularning xususiyatidan va faoliyat turidan kelib chiqib amalga oshirish maqsadga muvofiq.*

Kalit so'zlar: *transport tizimi, normativ hujjatlar, avtomobil transporti, transport logistikasi, transport turlari, iqtisodiy samaradorlik, aktivlar rentabelligi, nazariy tahlil.*

KIRISH

Bugungi kunda transport xizmatini samarali ko'rsatish, xizmatdan foydalanuvchilarning talabini qondirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli transport tizimi doimo davlat va jamiyatning diqqat markazida bo'lib, uning samarali ishlashi barcha sohalarining rivojlanishiga xizmat qilsa, samarasiz ishlashi samaradorlikning pasayib ketishiga olib keladi. Transport sohasidagi iqtisodiy muammolarni bartaraf etish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

M. Kalonov o'z ishlarida yuk tashish hajmining asosiy qismi avtomobil transportiga to'g'ri kelishi sabablari sifatida quyidagilarni keltiradi:

- avtomobil transportida yuk tashishning qulayligi;
- kichik hajmdagi yuklarni tashish imkoniyatining yuqoriligi;
- havo transportining qimmatligi;
- ichki temir yo'llarning yaxshi rivojlanmaganligini ta'kidlaydi.⁷⁸

⁷⁸ Kalonov M.B. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish masalalari: Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 176 b.



Respublikamiz transport tizimi tomonidan havo transporti, avtomobil transporti, metropoliten, temir yo'l transporti va qisman daryo transporti orqali xizmatlar ko'rsatilishi ma'lum. Ammo mazkur xizmatlarning har birining o'z xususiyati mavjud. Shu bois transport tashkilotlarida tahlil ishlarini ularning xususiyatidan va faoliyat turidan kelib chiqib amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Transport korxonalarini tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni ham doimiy ravishda bir xilda ta'minlash imkoniyati mavjud emas. Shundan kelib chiqib har bir transport xizmatining turlari bo'yicha alohida tahlil ishlarini tashkil etish metodikasi yaratilishi lozim. Shundagina korxonada asosli boshqaruv qarorlari qabul qilinadi hamda transport korxonalarining rivojlanishi ta'minlanadi.

Aksariyat hollarda korxonalarda tahlilni tashkil etishda samarali boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish uchun boshqaruv tahlili, xarajatlar tahliliga murojaat qilinadi. Jumladan, O.A. Kulakova, E.V. Iodalar o'zlarining ilmiy ishlanmalarida korxonalarni boshqarishning samarali usuli sifatida xarajatlarni tahlil qilishni tavsiya etishadi.⁷⁹ Mualliflar tomonidan asosiy e'tibor xarajatlar va ularning tarkibiy tuzilishi hamda tahliliga bag'ishlangan, shu bo'yicha fikr va mulohazalar keltirilgan.

A.A. Virbitkin o'zining tadqiqotlaridan birida transport korxonalarida iqtisodiy tahlil usullari haqida fikr yupitar ekan, korxonaning xizmat ko'rsatish, bozor va moliyaviy faoliyatini, to'lovga qobiliyatsizligini, bir vaqtning o'zida bankrot bo'lish ehtimolini baholash lozimligini uqtirib o'tadi. U tomonidan olib borilgan tadqiqotda transport korxonalarining qobiliyatsizligi va bankrot bo'lish ehtimoli masalalari ko'poq yoritiladi.⁸⁰ Tadqiqotchi transport korxonalarining nafaqat umumiy moliyaviy holatini, balki texnik, kadrlar bilan ta'minlanganlik, tugallanmagan ishlarni tugallash imkoniyatlari, transport tashkiloti bankrot bo'lishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillarni ham hisobga olish lozimligini ta'kidlaydi. Mazkur tartibda tahlildan foydalanish, iqtisodiy tahlilning tashkil etilishi transport korxonalarining to'lovga qobiliyatligi hamda bankrot bo'lish ehtimolining oldini olish bo'yicha choralar ko'rishga olib kelishini uqtiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar barcha sohalarda, jumladan, transport sohasida ham o'z natijasini berib, bu sohada yillar davomida xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga olib keldi. Transport korxonalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etish mazkur sohaning rivojlanish darajasini yanada oshirishga, shu bilan birga, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan transport korxonalaridan asosan shaharlararo va viloyatlararo hamda shaharlarda yo'lovchilarni va yuklarni

⁷⁹ Кулакова О.А., Иода Е.В. Анализ затрат как эффективный метод управления предприятием // Социально-экономические явления и процессы. 2009. №2 (014).

⁸⁰ Бырбыткин А.А. Методы экономического анализа деятельности транспортных организаций для выявления признаков несостоятельности и преднамеренного банкротства // Transport business in Russia. 2017. №2. – С.144 – 155.

tashishda foydalaniladi. Respublikamizda havo transportining nisbatan qimmatligi, ichki temir yo'llarning yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda mazkur transport xizmatlarini yo'lga qo'yish foydasiz bo'lganligi sababli tashishlarning katta qismi avtomobil transporti tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, transport korxonalarining ichida avtomobil transporti rivojlanishi bu xizmat turining mobilligi, o'z vaqtida yuk va yo'lovchilarni aytilgan joyga va vaqtga yetkazib berishi bilan bevosita bog'liq. Bu masalada boshqa olimlar tomonidan turli tadqiqotlar olib borilib, yuqoridagi mazmundagi xulosalar shakllantirilgan.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat transport korxonalarida davlat ulushi mavjud bo'lib, biz tomondan aynan davlat ulushi bo'lgan va xususiy transport korxonalarini boshqarish jarayonida iqtisodiy tahlildan foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi.

Davlat ulushi mavjud korxonalarda boshqaruvdagi natijadorlikni baholashda samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini (SMK) aniqlashda foydalaniladi.

Bu ko'rsatkichni amaliyotga kiritish va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 28 iyuldagi "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-sonli qarori asosida belgilangan.

Mazkur qaror bilan Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan bo'lib, ushbu Nizomga ko'ra, samaradorlikni baholash mezonlari belgilangan davriylik bo'yicha hisoblanadigan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Nizom va uning ilovalarida keltirilgan samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini hisoblash metodikasi davlat ulushi bor korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etishda asosiy uslubiy hujjat sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada guruhlash, taqqoslash, induksiya, deduksiya, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, monografik kuzatish, kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Muvaffaqiyatga erishish qoidalari sifatida korxona tomonidan umumiy maqsad sifatida foydani oshirish, xarajatlarni qisqartirish, bozordagi ulushni ko'paytirish, mijozlarga xizmat sifatini ko'tarish kabi bir qator ko'rsatkichlar belgilanadi, ammo ular miqdoriy jihatdan (sonlarda) aks ettirilmaydi. Aslida, maqsadlarni foizlar va sanoqlar orqali ularning dinamikasini ko'rsatgan holda ifodalash zarur, ba'zida qiyin o'lchanadigan yoki o'lchab bo'lmaydigan mezonlar, ijroda qo'llash murakkab bo'lgan formulalarni ishlatish ham xatoliklarni keltirib chiqaradi. Shu sabab mezonlar juda tushunarli bo'lishi, har bir ko'rsatkich zahirida nima yotishi aniq amaliyot va natijalar bilan izohlanishi lozimligini hamda tizimni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun korxona



kamida ikki yillik maqsadni oldindan aniqlashi, har bir jarayon va loyiha ushbu maqsadga bog'langan bo'lishi darkorligini ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari aktsiyadorlik jamiyatining o'tgan davrdagi faoliyatiga qarab kelajakdagi istiqbolini belgilash uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish, korxona iqtisodiy faoliyatini baholashga xizmat qilib, oxir-oqibat jamiyatning rivojlanishiga, uning moliyaviy barqarorligini oshirishga hamda rivojlanishiga olib keluvchi qarorlar qabul qilinishini ta'minlashi kerak.

Yuqoridagi me'yoriy-uslubiy asosda samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari sifatida tasniflanadigan va baholanadigan ayrim ko'rsatkichlar keltirilgan bo'lib, samaradorlikning asosiy va qo'shimcha muhim ko'rsatkichlariga bo'linadi. Samaradorlikning asosiy va qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari tarkibini o'rganar ekanmiz, xulosa qilish mumkinki, samaradorlikning asosiy muhim ko'rsatkichlari ko'proq umumiy xarakterga ega bo'lib, korxona faoliyati natijalarini tavsiflaydi, samaradorlikning qo'shimcha muhim ko'rsatkichlari esa xususiy xarakterga ega bo'lib, korxona faoliyati natijalariga olib boruvchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilishimiz mumkinki, korxona samaradorligi ko'rsatkichlari transport tashkilotlari iqtisodiy faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kalonov M.B. Avtomobil transporti korxonalarida xarajatlar hisobini yuritish masalalari: Monografiya. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018. – 176 b.
2. Kalonov M. Daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili uslubiyoti (avtotransport korxonalari misolida). – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 262.
3. Кулакова О.А., Иода Е.В. Анализ затрат как эффективный метод управления предприятием // Социально-экономические явления и процессы. 2009. №2 (014).
4. Pardayev M.Q., Hasanov B.A., Isroilov J.I., Xoliqulov A.N., Iqtisodiy tahlil: Darslik. – Toshkent, 2011. – B. 40-45.
5. Shoalimov A.X., Tojiboeva Sh.A. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. – Toshkent, 2011. – B.41-44.
6. Бырбыткин А.А. Методы экономического анализа деятельности транспортных организаций для выявления признаков несостоятельности и преднамеренного банкротства // Transport business in Russia. 2017. №2. – С.144 – 155.
7. Тарханова Н.В. Анализ себестоимости транспортных услуг // Вестник ИрГТУ. 2015. №12 (107).